

AMIR TEMUR - MARKAZLASHGAN DAVLAT ASOSCHISI

Ubaydullayeva Shaxnoza

*Qashqadaryo Viloyati Chiroqchi tumani
MMTBga qarashli 1-maktab Tarix fani o'qituvchisi*

Anotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temurning markazlashgandavlat barpo qilishi, o'rnatgan tartib qoidalari, shu davrda davlatdagi hukmronlik haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Amir Temur hukmronligining boshlanishi, oliy hokimiyat ramzi, markazlashgan davlat, Movarounnahr va Xurosonning birlashtirilishi

XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrda hukm surgan og'ir siyosiy va iqtisodiy vaziyat mamlakatni birlashtirib, kuchli bir davlat tashkil etishni talab qilmoqda edi. Amir Temur zamonasining bunday talabini boshqa amirlarga nisbatan yaxshiroq tushunardi. Shuning uchun ham u markazlashgan davlat tuzishga kirishdi. Bunday maqsadni amalga oshirishda Temur oqsoqollar, harbiylar, savdogarlar va shahar hunarmandlari tabaqalariga suyangan. Amir Temur bu ulkan maqsadini ro'yobga chiqarish ishini avvalo ichki g'animplariga qarshi kurashdan boshlaydi. 1370-yilning bahorida Amir Temur butun qo'shinlari bilan kuchli raqib – Balx hukmdori Amir Husaynga qarshi yo'lga chiqadi. Qo'shin Termiz yaqinidagi Biyo qishlog'iga yetganida Temurning huzuriga taniqli ulamolardan Sayyid Baraka tashrif buyuradi. Sayyid Baraka Amir Temur faoliyatini qo'llab-quvvatlab, Oliy hokimiyat ramzi nog'ora bilan bayroq tortiq qilib, buyuk kelajagidan bashorat qiladi. Bu voqeа, shubhasiz, siyosiy ahamiyatga ega edi. Chunki nog'ora bilan bayroq musulmonlarning odatiga binoan toj-taxt ramzi bo'lgan. Uni oliy martabali ruhoniyligi qo'lidan olish tez orada toj-taxt va saltanat egasi bo'lishiga ishora edi. Amir Temur qo'shini to Balxga yetib borgunicha yo'l-yo'lakay yangi kuchlar kelib qo'shiladi. Bu paytga kelib Amir Husaynning ko'p amirlari uni tark etadi. Jangda Amir Husayn qo'shini yengiladi. Ikki kunlik qamaldan so'ng 1370-yilning 10-aprelida Balx shahri Amir Temurga taslim bo'ladi. Amir Husayn qatl etiladi. Ertasi kuni bo'lib o'tgan qurultoyda Amir Temurning hukmdorligi rasman tan olinib, Mvarounnahrning amiri deb e'lon qilinadi.

Davlatni siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlab, ko‘pdan beri davom etib kelayotgan ichki tarqoqlikka barham berish, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish maqsadida Amir Temur 1370-yil iyul oyida Samarqandda katta qurultoy chaqirdi. Qurultoyda markaziy davlat tizimini shakllantirish va qo‘sish tuzish masalalari muhokama etiladi. Samarqand davlat poytaxti deb e’lon qilinadi. Shaharda mustahkam devorlar, qal’alar hamda saroylar barpo etishga kirishiladi. Bu imoratlar Samarqand mo‘g‘ullar tomonidan vayron etilganidan so‘ng 150 yil o‘tgach, birinchi marta bunyod etilgan umummamlakat miqyosidagi inshootlar edi.

Amir Temur mamlakatda qonun va tartib ishlarini joriy etadi. Maxsus qo‘sish tuzib, ularga katta imtiyoz beradi. U yirik harbiy bo‘linmalar boshliqlarini va sipohsolorlarni tayinlaydi. Amir Temur taxtga o‘tirgach, o‘zini Chig‘atoy ulusining barcha yerlariga voris deb bildi. Sohibqiron Sirdaryoning quyi havzasidagi yerlarni, Toshkent viloyatini, Farg‘ona vodiysi va Xorazmni hukmronligi ostiga oldi. Amir Temur 1372-yildan boshlab Xorazmga besh marta harbiy yurish qildi va Xorazm 1388-yilda uzil-kesil bo‘ysundirildi. 1381-yilda Hirot, Seyiston, Mozandaron egallandi. Shundan so‘ng Saraxs, Jom, Qavsiya, Sabzavor shaharlari Amir Temurga jangsiz bo‘ysundi va davlat tasarrufiga o‘tdi. Shu tariqa Amir Temur Movarounnahr, Xuroson va Xorazmni birlashtirib, yirik markazlashgan davlat tuzdi. Bu ulkan hududda yashovchi xalqlarning birlashuvi ular taqdirida ijobiy ahamiyatga ega bo‘ldi.

Oltin O’rda davlati - To’qtamishxonning yengilishlaridan keyin Temurbek Oltin O’rdada o’zi xon belgilab keladi va savdo aloqalarini saqlaydi. Oltin O’rda Temurbek davlati bo'yinturug'i ostiga to'la kirmasada ortiq xavf tug'dirmaydigan davlatga aylanadi. Oltin O’rda davlatining cho'kish davri boshlanadi.

Mamluqlilar davlati - Shomdagagi qaqshatqich yengilishdan keyin Mamluqli davlati Temurbekning so’rovlarini, elchi Atalmishni qo'yib yuborish va so’ralgan mollarni berish, o’taydi. Urushdan oldin va keyin bir necha bora 2 tomondan ham elchilar borib keladi. Maktublar almashiniladi. Temurbek davlati bo'yinturug'i ostiga kiradi.

Jete davlati - 5 bora og‘ir yurishlardan so‘ng Jete yoki Mo‘g’uliston Temurbek davlati bo'yinturug'i ostiga to'la kirmasada ortiq xavf tug'dirmaydigan davlatga aylanadi.

Dehli sultonligi - Dehlidagi qayta tiklanib bo'lmas yengilishdan keyin Temurbek davlati bo'yinturug'i ostiga kiradi.

Usmonli sultonligi - Anqara urushidagi qaqshatqich yengilishdan keyin Usmonli davlati Temurbek davlati bo'yinturug'i ostiga kiradi. Usmonli davlatida bir necha yillik Fitrat chog'i boshlanadi.

Gurji qirolligi - bir necha bora talanishi va bosib olinishi ortidan Temurbek davlati bo'yinturug'i ostiga kiradi. Yillik belgilangan soliq to'lashi belgilanadi.

Eron, Afg'oniston va Kavkazdagagi davlatlar - barchasi Temurbek davlati ichiga kiradi.

Rus davlati - To'qtamishxonning yengilishi ortidan Temurbekka bir qancha sovg'a salomlar o'taydi. Bir qancha shaharlari tekislanadi. Moskva yag'mosi esa tarixchilar orasida tortishmali. Ko'plab rus tarixchilari, aynan kim Yakubovskiy.A.Y va Grekov. B. D "Oltin O'rda va uning qulashi"(Золотая Орда и ее падение) kitobida Temurbek Mashkav(Moskva)ni olmaganligi, Mashkav olinganligi va talanganligi to'g'risida o'z kitoblarida bilgi bergen Nazimiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiylarning jug'rofiya(geografiya) bilimlari Rus geografiyasi borasida yetarli emasligini, ular ikkovlari birdek adashib Ryazanni Moskva deb o'ylaganliklarini aytib o'tadilar. Biroq Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiyda Moskvani va undanda uzoqroqda, shimolroqda bo'lgan yerkarningda aniq geografik bilimlari borligiga tegishli bir necha bitiklar uchraydi.

Fransiya qirolligi - Usmonli davlati yengilishi ortidan Temurbek davlati bilan savdo aloqalari o'rnatilishi kelishiladi. Elchilar va maktublar almashinuvi bo'ladi.

Kastiliya(Ispaniya) qirolligi - Usmonli davlati yengilishi ortidan Temurbek davlati bilan savdo aloqalarini o'rnatilishi kelishiladi. Elchilar va maktublar almashinuvi bo'ladi.

Vizantiya imperiyasi - Usmonli davlati yengilishi ortidan Istanbul uchun Temurbekka juzya(din solig'i)ni o'taydi. Elchilar almashinuvi bo'ladi.

Xitoy davlati (Ming imperiyasi - Xitoy bilan savdo aloqalari va elchilar almashinuvi mavjud bo'lgan. Temurbekning o'limi ortidan Xitoy yurishi qoldiriladi.

Temurning 1402-yildagi Fransiya qiroli mir Temur turk, arab va eronliklar tarixini chuqr bilgan. U davlat ahamiyatiga ega bo'lgan har bir masalani hal etishda, shu sohaning bilimdonlari va ulamolari bilan maslahatlashardi. Odatdatibbiyot, riyoziyot, falakiyat, tarix, adabiyot, tilshunoslik ilmi namoyandalari, shuningdek ilohiyot va din sohasidagi mashhur ulamolar bilan suhbatlar o'tkazardi. Amir Temur saroyida ulamolardan mavlono Abdujabbor Xorazmiy, mavlono Shamsuddin Munshi, mavlono Abdullo Lison, mavlono Bahruddin Ahmad, mavlono Nu'monuddin Xorazmiy, Xo'ja Afzal, mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Xokiy va boshqa xizmat qilardi. Alisher Navoiyga Amir Temurning ilm va ma'naviyat aqliga ko'rsatgan g'amxo'rliги juda yoqar edi. Bu haqda Navoiy shunday degandi: „Agar Temur qayerda fan, madaniyat va san'at ahlini uchratsa, ularni o'z homiyligiga olar, ularga izzat-ikrom ko'rsatar, ularning tarbiyasiga ahamiyat berar hamda bu zotlardan o'z oliy majlisida nadim (maslahatchi) sifatida va boshqa lavozimlarda foydalanardi“. Amir Temur davrida savdo va hunarmandchilik g'oyatda rivojlanadi. Yangi bozorlar, savdo rastalari barpo qilinadi. Klavixo Samarqand bozorlarida bug'doy va guruchning mo'lligi va arzonligi haqida gapirib, shahar hunarmandchiligi mahsulotlarini – atlas, kimxob, har xil ip va jun to'qima mollar, mo'ynali va ipakli po'stinliklar, attorlik mollari, ziravor va dorivorlar, zarhal va lojuvardlar hamda boshqa mollarning serobligini ham ta'kidlaydilar. Bu davrda Amir Temur va uning joy Sulton Mahmudxon asir olingen

noiblari Xitoy va Hindistondan O'rta Osiyo orqali Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlariga yo'nalgan asosiy xalqaro savdo yo'li – „Buyuk ipak yo'li“ni nazorat qilib, savdo karvonlari qatnovi xavfsizligini ta'minlashda, rabotlar, qal'alar, ko'priklar qurish yo'lida muhim chora-tadbirlar ko'rdilar va Sharq bilan G'arb o'rtaosida savdosotiqligini va elchilik aloqalarini har tomonlama rivojlantirishga g'oyat katta e'tibor berdilar. Amir Temur eng muhimi, Eron, Ozarbayjon va Iroqdagagi mayda hukmdorlar o'rtaosidagi tarqoklik va boshboshdoqlikka barham berib, bu bilan nafaqat Movarounnahr, balki Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga, xalqgar va mamlakatlarni bir-biri bilan yaqinlashtirishga ulkan hissa qo'shdi. Amir Temur Yevropaning Fransiya, Angliya va Kastiliya kabi yirik qirolliklari bilan bevosita savdo va diplomatik aloqalar o'rnatdi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Hamdam Sodiqov O'zbekiston tarixi .1tom Toshkent Sharq 2011y.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediya 1tom Toshkent "Toshkent ilmiy nashriyoti",2000y.
3. I.Mo'minov "Amir Temurning O'rta Osiyoda tutgan o'rni va roli". Toshkent, 1993yil.
4. T.Fayziyev "Temuriylar shajarasi". Toshkent, 1994 y.
5. T.Fayziyev. "Temuriylar shajarasi". Toshkent.1997.
6. Temur va ulug'bek davri tarixi. Toshkent.1996
7. X.Ye. Bekmuxammadov "Tarix terminlarining izoxli lug'ati" Toshkent "O'qituvchi " 1986
8. Temur tuzuklari. T., 1991